

MAKTABDA YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARINI O‘QITISH

Matkarimova Ra'noxon Ikromjonovna

*Namangan viloyati 17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi,
O'zbekiston, Namangan*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktablarda yordamchi so'z turkumlarini o'qitish metodologiyasi ilmiy taqdim etiladi. Ilmiy fikr-lar faktlarga asoslanib xulosalanadi.

Kalit so'zlar: So'z, so'roq, javob, atash ma'nosi, gap, gap bo'lagi, vazifa, mustaqil so'z turkumi, yordamchi so'z turkumi.

Morfologiya (grek. morfos «shakl», logos «ta'limot») so'zlaridan olingan bo'lib) so'z shakllari haqidagi ta'li-motdir. Tilshunoslikning leksikologiya bo'limi ham, morfologiya bo'limi ham so'z haqida bahs yuritadi, lekin bu ikki bo'lim so'zning qaysi tomoniga e'tibor qaratishi bilan bir-biridan farq qiladi. Leksikologiya leksik so'z (leksema)larni, ularning atash ma'nolarini o'rgansa, morfologiya so'zning grammatik ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllarni, ya'ni so'zning morfo-logik shakllarini o'rganadi. Masalan, qalam, qalamning, qalamni, qalamga, qalamdan, qalamda shakllari bir so'zning (qalam so'zining) turli shakllari hisoblanadi. Bu so'z shakli uning hammasida takrorlanayotgan qalam qismi ikkita ma'noga ega. Birinchi ma'nosi yozish, chizish uchun mo'ljallangan grafit toshga yog'och qoplama o'rnatilgan o'quv qurolini bildiradi. Bu qalam lekse-masining (leksik so'zning) atash ma'nosi sanaladi. Leksik so'zning atash ma'nolari leksikologiyada o'rganiladi. Shu bilan birgalikda qalam so'zi daftar, kitob so'zlari singari nima? so'rog'iga javob bo'lib, predmetlik, bosh kelishiklik, birlik ma'nolariga ham ega. Bu esa qalam so'zining ikkinchi ma'nosi — grammatik ma'nosi sanaladi. Ana shu grammatik ma'nolar va ularni ifodalovchi vositalar morfologiya bo'limida o'rganiladi. So'zlar ma'lum so'roqqa javob bo'lish yoki bo'lmasligiga, atash ma'nosining mavjudligi yoki mavjud bo'lmasligiga, shuningdek, gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida kelish kelmasligiga ko'ra mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga ajratiladi. Bunda ot, sifat, son, fe'l, ravish va olmoshlar mustaqil so'z turkumlariga; yuklama, bog'lovchi, ko'makchilar esa yordamchi so'z turkumlariga bo'linadi. Yuqorida berilgan qoidaga izoh beradigan bo'lsak, birinchidan, mustaqil so'z turkumlari ma'lum so'roqqa javob bo'ladi. Masalan, ot so'z turkumi kim?, nima?, qayer? so'roqlariga, sifat so'z turkumi qanday?, qanaqa?, qay-si?, son so'z turkumi nechta?, nechanchi?, qancha?, fe'l so'z turkumi nima qildi?, nima qilyapti?, nima qil-moqchi? va hokazolar. Xullas, mustaqil so'z turkumlari biror so'roqqa javob bo'la oladi. Endi qoidaning ikkinchi qismiga, atash

(lug'aviy) ma'nosining mavjudligi yoki mavjud emasligiga ko'ra so'zlarning mustaqil yoki yordamchilarga ajralishiga to'xtaladigan bo'lsak, ot so'z turkumiga lug'aviy ma'no mavjud [1]. Masalan, koptok, ko'zgu, koinot so'zlari misolida olib qaraydigan bo'lsak, koptok - so'zining lug'aviy ma'nosi umuman, ba'zi oyinlar uchun mo'ljallangan dumaloq shaklga ega elastik buyum. Ko'zgu so'zi barcha ko'zga ko'rinadigan narsalarning aksini ko'rsatadigan buyum. Koinot- yer shari va un-dan keyingi butun sayyoralarni o'zida jam etgan cheksizlik. Sifat so'z turkumiga oid yaxshi so'zi inson-larga ijobiy tasavvur bera oluvchi so'z. Baland so'zi pastdan yuqoriga qarab ko'tarilgan masofa. Umuman olganda, mustaqil so'z turkumlaridan olmoshdan bos-hqa barcha so'z turkumlarida lug'aviy ma'no mavjud. Yordamchi so'z turkumlarida esa lug'aviy ma'no mavjud emas. Shuningdek, yordamchi so'z turkumlari gapda hech qanday gap bo'lagi vazifasida kela olmay-di, ammo o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda gap bo'lagi bo'lib kela olishi mumkin. Masalan, Vatan men uchun muqaddas tushuncha, yoki shunday qilib, ish borgan sari kattalashar katta bo'lar va ish katta bo'lgan sayin Sayid Jalolxonning kallasi o'g'irlashar edi (A. Qahhor). Bunda birinchi gapda uchun ko'makchisi o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birgalikda to'ldiruvchi vazifasida kelgan bo'lsa, ikkinchi gapda hol vazifasida kelyapti.

Yordamchi so'z turkumlari esa hech qanday so'roqqa javob bera olmaydi. Negaki, unda so'roqqa javob bera oladigan lug'aviy (atash) ma'no mavjud emas [1]. Ammo shu o'rinda aytib o'tish lozimki, yordamchi so'zlar so'roq olmoshlariga qo'shilib gapda so'roq so'zlarni hosil bo'lishida yordam beradi. Masa-lan, nima uchun?, nima maqsadda?, nima sababdan?, kim uchun?, kim tufayli?, kim sababli?, qay yo'sinda?, qanday qilib? va hokazolar. Endi qoidaning ikkinchi qismiga, atash (lug'aviy) ma'nosining mavjudligi yoki mavjud emasligiga ko'ra so'zlarning mustaqil yoki yordamchilarga ajralishiga to'xtaladigan bo'lsak, ot so'z turkumiga lug'aviy ma'no mavjud [2]. Masalan, koptok, ko'zgu, koinot so'zlari misolida olib qaraydi-gan bo'lsak, koptok - so'zining lug'aviy ma'nosi umuman, ba'zi oyinlar uchun mo'ljallangan dumaloq shaklga ega elastik buyum. Ko'zgu so'zi barcha ko'zga ko'rinadigan narsalarning aksini ko'rsatadigan buyum. Koinot- yer shari va undan keyingi butun sayyoralarni o'zida jam etgan cheksizlik.

Sifat so'z turkumiga oid yaxshi so'zi insonlarga ijobiy tasavvur bera oluvchi so'z. Baland so'zi pastdan yuqoriga qarab ko'tarilgan masofa. Umuman olganda, mustaqil so'z turkumlaridan olmoshdan boshqa barcha so'z turkumlarida lug'aviy ma'no mavjud.

Yordamchi so'z turkumlarida esa lug'aviy ma'no mavjud emas. Shuningdek, yordamchi so'z turkumlari gapda hech qanday gap bo'lagi vazifasida kela olmaydi, ammo o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda gap bo'lagi bo'lib kela olishi mumkin. Masalan, Vatan men uchun muqaddas tushuncha, yoki shunday qilib, ish borgan sari

kattalashar katta bo'lar va ish katta bo'lgan sayin Sayid Jalolxonning kallasi o'g'irlashar edi (A.Qahhor).

Bunda birinchi gapda uchun ko'makchisi o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birgalikda to'ldiruvchi va-zifasida kelgan bo'lsa, ikkinchi gapda hol vazifasida kelyapti. Yordamchi so'z turkumlari haqida yana shuni aytib o'tish mumkinki, ularda grammatik ma'no mavjud, grammatik vazifa mavjud, grammatik shakl mavjud [3]. Shuningdek, gaplarni o'zaro bog'laydi, so'zlarni o'zaro bog'laydi, qo'shimcha ma'no yuklaydi. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar bilan qo'shimchalar oralig'ida turgan grammatik vositalardir. Yordamchi so'zlar quyidagilar:

1. Bog'lovchi
2. Ko'makchi
3. Yuklama

Yettinchi sinf ona tili darsligida "Yordamchi so'zlar" mavzusi keng va murakkab berilgan. Jumladan "Yordamchi so'zlar" mavzusidagi topshiriqni ko'rish mumkin: "So'zlar ma'lum so'roqqa javob bo'lish yoki bo'lmasligiga ko'ra, atash ma'nosining mavjudligi yoki mavjud bo'lmasligiga ko'ra, shuningdek, gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida kelish kelmasligiga ko'ra mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga ajratiladi" [4].

O'qituvchi har bir qoidaning mohiyatini ochib bera olishi lozim. Ana shunday tushuntirilishi lozim bo'lgan qoida budir: "Ot, sifat, son, fe'l, ravish va olmoshlar ma'lum bir so'roqqa javob bo'ladi [5]. Ularning bar-chasi, olmoshlardan tashqari, atash ma'nosiga ega. Ot borliqdagi shaxs-narsalarning, voqea-hodisalarning nomini, sifat va ravish belgini, son miqdorini ifodalaydi. Olmosh esa yuqoridagi so'zlardan qaysisining o'rnida kelsa, o'shaning ma'nosiga ishora qiladi."

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Ushbu ta'rifga o'qituvchi tomonidan izoh berib o'tilsa, yomon bo'lmaydi, chunki mustaqil so'z turkumlaridan ot, si-fat, son, ravish va fel mavzulari 6-sinfda o'tilganligi sababli o'quvchining xotirasidan ko'tarilgan bo'lishi mumkin. Yordamchi so'z turkumini yaxshi o'zlashtirish uchun, albatta, mustaqil so'z turkumlarini bilish lozim. Shunday holatning bo'lishi hisobga olingan holatda yana bir bor qoida eslab o'tish joizdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси.
2. Asadov T. Ona tili. Usuliy qo'llanma. Вухоро: "Вухоро", 2012, 86 б.
3. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Тошкент: Шарқ, 2001. 164 б.
4. Мирзаев М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Машқлар тўплами. Тошкент, 1963. 143 б.
5. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Тошкент: Шарқ, 2001. 164 б.